



Taqiqot.uz



АНДУМАН | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022
ДЕКАБР
№47



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uz

www.conferences.uz

**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
25-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-25**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-25**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 46-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 18 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази мухаррири

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўкув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибай Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов: tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ГЕОГРАФИЯ

1. Sotvoldiyeva Dilfuza

МАКТАБ GEOGRAFIYA MAYDONCHASIDA “ATMOSFERA” MAVZUSIGA OID
AMALIY MASHG’ULOTLARNI TASHKIL ETISH 7

2. Babayeva Malika Usmon qizi, Ataboyeva Nasiba Farxod qizi

GEOGRAFIYA DARSALARINING SIFAT - SAMARADORLIGINI
OSHIRISH USULLARI 10

3. Bozorqulova Shoxista Abduaxatovna, Bozorova Mahliyo Hayitovna

GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA O'QITISH VOSITALARIDAN FOYDALANISH
IMKONIYATLARI 12

4. Madaminova Raxima Maksudovna

GEOGRAFIYA DARSALARIDA INTERFAOL TA'LIM VA UNING DIDAKTIK
IMKONIYATLARI 14

5. Пармонова Сайяра Абдусидиковна, Исматова Ирода Уммат қизи

ГЕОГРАФИЯ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ЗАМОНА-
ВИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА ИННОВАЦИЯЛАР 16



ГЕОГРАФИЯ

МАКТАБ GEOGRAFIYA MAYDONCHASIDA “ATMOSFERA” MAVZUSIGA OID AMALIY MASHG’ULOTLARNI TASHKIL ETISH

Sotvoldiyeva Dilfuza

Namangan viloyati Norin tumani

14-maktab geografiya fani o’qituvchisi

ANNOTASIYA: Ushbu maqolada umumiyoq o’rta ta’lim tizimida geografiya darslarini o’tishda yangi innovatsion metodlardan foydalanish usullaridan namunalar keltirilgan, jumladan, geografiya maydonchasida “Atmosfera” mavzusiga oid amaliy mashg’ulotlarni tashkil etish usullari haqida fikrlar keltirilgan

KALIT SO’ZLAR: geografiya maydonchasi, “oddiydan murakkabgacha” usuli, amaliy topshiriqlar

Ilmiy topshiriqlarning asosiy maqsadi dars davomida egallangan bilimlarni amalda tadbiq etish va ularni yanada mustahkamlashdir. Amaliy mashg’ulotlar geografiya o’qituvchisidan ham, o’quvchilardan ham alohida tayyorgarlikni talab etadi. Amaliy topshiriqlarga o’quvchilarni dars jarayonida “oddiydan murakkabga” usulini qo’llagan holda oddiy, elementar ishlardan sekin – astalik bilan murakkab topshiriqlarga o’rgatib borish zarur. O’qituvchi eng avvalo o’quvchilarni darslikdagi matn, rasm va amaliy topshiriqlar bilan ishlashga, geografik xaritalarni o’qish qobiliyatini yaxshilashga, tabiat hodisalarini kuzatish va kuzatish natijalarini tahlil qilishga, keyinchalik esa alohida o’quv va uslubiy qo’llanmalardagi topshiriqlarni bajarishga, geografik mashq va masalalarni yechishga o’rgatib borishi lozim. Amaliy mashg’ulotlar o’quvchilarda geografiya faniga oid bo’lgan ko’nikma va malakalar (geografik mashq va masalalar yechish, xarita bilan ishlash, raqamli ma’lumotlar bilan ishlash, tabiat hodisalarini kuzatish hamda tahlil qilish va hokazo) ni hosil qiladi. Olingan bilimlarni mustahkamlash amaliy topshiriqlarning asosini tashkil etadi. Amaliy topshiriqlar o’quvchilar tomonidan individual tarzda ham, yoki o’qituvchining nazorati ostida ham bajarilishi mumkin. O’quvchilar amaliy topshiriqlarni bajarish, geografik mashq va masalalarni yechish usullarini egallaganlaridan keyin topshiriqlarni mustaqil bajarish imkoniyati vujudga keladi. Geografiya maydonchasida o’quvchilar tomonidan bajariladigan amaliy topshiriqlarga quyidagi metodik talablar qo’yiladi:

1. Amaliy topshiriqlar o’quvchilarning bilimi va qobiliyatiga mos, ularning psixofiziologik imkoniyatlarini hisobga olgan, ayni vaqtida ularning fikrlash qobiliyatini va ijodiyl tashabbusini rivojlantiradigan bo’lishi kerak;
2. O’quvchilarning amaliy topshiriqlari (geografik mashq va masalalar, xarita bilan ishlash va hokazo) ilgari egallangan bilim, ko’nikma va malakalardan foydalanishni taqozo etadigan hamda ularni yana-da rivojlantiradigan bo’lishi lozim;
3. Amaliy topshiriqlarning turi va mazmuni o’quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning tayyorgarlik (bilim) darajasiga va individual xususiyatlariga mos kelishi shart;
4. Amaliy topshiriqlarning mazmunan xilma-xil va qiziqarli bo’lishiga e’tibor berish kerak, ularning natijasi o’quvchilarga yangilik berishi shart;
5. Amaliy topshiriqlar quyi sinflardan yuqori sinflarga tomon asta-sekin murakkablashib borishi lozim;
6. Har bir amaliy topshiriqning natijasi o’z vaqtida tahlil qilinishi, muhokama qilib baholanishi, amaliy topshiriq natijilarini esa ta’lim jarayonida foydalanilishi maqsadga muvofiq 1. Havo haroratini aniqlash. Havo harorati deb havoning qanchalik isiganiga yoki soviganiga aytildi. Havo harorati termometr asbobi yordamida o’lchanadi. Termometr yer yuzasidan 2 metr balandga, Quyosh nuri tushmaydigan soya joyga o’r natiladi. Dunyodagi juda ko’p meteorologik stansiyalarda ob - havoning holati, shu jumladan havo harorati har 3 soatda bir



marta (sutkasiga 8-marta) o‘lchab turiladi. Shundan so‘ng o‘rtacha harorat aniqlanadi. Sutkalik o‘rtacha haroratni aniqlash uchun sutka davomidagi barcha kuzatish natijalari qo‘silib, necha marta kuzatish olib borilgan bo‘lsa, shunchaga bo‘linadi. Oylik o‘rtacha haroratni topish uchun shu oydagи sutkalik o‘rtacha haroratlar qo‘silib, oyning kunlari soniga bo‘linadi. Yillik o‘rtacha haroratni aniqlash uchun bir yil mobaynidagi barcha oylik o‘rtacha haroratlar qo‘silib, 12 (bir yildagi oylar soni) ga taqsimlanadi.

Sutkalik havo haroratining eng yuqori va eng past ko‘rsatkichlari orasidagi farq (tafovut) havo haroratining sutkalik amplitudasini deb ataladi. Yil davomidagi eng yuqori harorat bilan eng past harorat orasidagi tafovut havo haroratining yillik amplitudasini deyiladi. Troposferada havo harorati o‘rtacha har 100 metr balandlikda $0,6^{\circ}\text{C}$ ga, har 1000 metr (1 kilometr) balandlikka ko‘tarilganda esa 6°C ga pasayib borishini o‘quvchilar tushungan holda topshiriqlarni bajaradilar. Geografiya maydonchasining dengiz sathidan balandligini hisobga olib mashqlar bajariladi.

1. Farg‘ona shahridagi 20- mактаб geografiya maydonchasida 10-apreldagi bir sutkalik kuzatish natijalari quyidagicha: kechasi soat 100 da $+4^{\circ}\text{C}$, soat 4 oo da $+2^{\circ}\text{C}$, ertalab soat 700 da $+5^{\circ}\text{C}$, soat 10 oo da $+9^{\circ}\text{C}$, kunduzi soat 13 oo da $+12^{\circ}\text{C}$, soat 16 oo da $+16^{\circ}\text{C}$, kechqurun soat 19 oo da $+10^{\circ}\text{C}$, soat 22 oo da $+6^{\circ}\text{C}$. Ushbu ma’lumotlar asosida sutkalik o‘rtacha haroratni aniqlang. Yechish: dastlab kuzatuv natijalarini qo‘shib chiqamiz va hosil bo‘lgan yig‘indini kuzatishlar soniga, ya’ni 8 ga bo‘lamiz: $+4^{\circ}\text{C} + 2^{\circ}\text{C} + 5^{\circ}\text{C} + 9^{\circ}\text{C} + 12^{\circ}\text{C} + 16^{\circ}\text{C} + 10^{\circ}\text{C} + 6^{\circ}\text{C} = +64^{\circ}\text{C} + 64^{\circ}\text{C} : 8 = +8^{\circ}\text{C}$. Javob: sutkalik o‘rtacha harorat $+8^{\circ}\text{C}$ ga teng ekan.

2. Kun davomidagi eng past harorat $+3^{\circ}\text{C}$ ga, eng yuqori harorat esa $+17^{\circ}\text{C}$ ga teng bo‘lsa, havo haroratining sutkalik amplitudasini aniqlang. Yechish: yuqoridagi ta’riflarga asoslangan holda kun davomidagi eng yuqori va eng past ko‘rsatkichlari orasidagi farq (tafovut) ni topamiz, ya’ni eng yuqori haroratdan eng past haroratni ayiramiz: $+17^{\circ}\text{C} - (+3^{\circ}\text{C}) = 14^{\circ}\text{C}$ Javob: havo haroratining sutkalik amplitudasini 14°C ga teng.

3. Yanvar oyining o‘rtacha harorati -8°C , iyul oyining o‘rtacha harorati esa $+22^{\circ}\text{C}$ bo‘lsa, bir yillik havo haroratining amplitudasini aniqlang. Yechish: qoidaga asoslangan holda yil davomidagi eng yuqori va eng past ko‘rsatkichlari orasidagi farq (tafovut) ni aniqlaymiz: $+22^{\circ}\text{C} - (-8^{\circ}\text{C}) = 30^{\circ}\text{C}$ Javob: havo haroratining yillik amplitudasini 30°C ga teng ekan.

4. Agar Farg‘ona shahridagi harorat $+26^{\circ}\text{C}$ ga teng bo‘lsa, 4 kilometr balandlikdagi Shohimardon hududidagi havo haroratini aniqlang. Yechish: Havo harorati har 1000 metr (1 kilometr) balandlikka ko‘tarilganda 6°C g a soviydi. Shuni hisobga olib proporsiya (nisbat) tuzamiz va uni yechamiz: 1 kilometr (km) -6°C 4 kilometr (km) - x x = $4 \text{ km} \times 6^{\circ}\text{C}$ $1 \text{ km} = 24^{\circ}\text{C} + 26^{\circ}\text{C} - (+24^{\circ}\text{C}) = +2^{\circ}\text{C}$

Javob: yer yuzasida havo harorati $+26^{\circ}\text{C}$ ga teng bo‘lganda 4 kilometr balandlikdagi Shohimardon hududida $+2^{\circ}\text{C}$ ga teng bo‘ladi.

5. Agar tog‘ etagining mutlaq balandligi 309 metr, u yerdagi havo harorati $+25^{\circ}\text{C}$, tog‘ cho‘qqisidagi havo harorati esa $+7^{\circ}\text{C}$ bo‘lsa, shu tog‘ning balandligini aniqlang.

Yechish: dastlab haroratlar orasidagi farqni topib olamiz:

$$+25^{\circ}\text{C} - (+7^{\circ}\text{C}) = +18^{\circ}\text{C}$$

Havo harorati har 1000 metr (1 km) balandlikka ko‘tarilganda 6°C ga pasayishini hisobga olib proporsiya (nisbat) tuzamiz va uni yechamiz:

$$1000 \text{ metr} - 6^{\circ}\text{C} \times = 1000 \text{ m} \times 18^{\circ}\text{C} \quad 6^{\circ}\text{C} = 3000 \text{ metr} \quad x - 18^{\circ}\text{C} \quad 3000 \text{ m} + 309 \text{ m} = 3309 \text{ metr}$$

Javob: tog‘ning balandligi 3309 metrga teng.

Yuqoridagi topshiriqlar o‘qituvchi bilan hamkorlikda ishlangandan so‘ng, o‘quvchilarga quyidagi topshiriqlar mustaqil yechish uchun tavsiya qilinadi:

1. Farg‘ona shahrida harorat yozda $+32^{\circ}\text{C}$, qishda esa -9°C bo‘lsa, havo haroratining yillik amplitudasini aniqlang.

2. Dengiz sathidan 273 metr yuqorida joylashgan tog‘ etagida harorat $+39^{\circ}\text{C}$, cho‘qqisida esa $+12^{\circ}\text{C}$ ga teng bo‘lsa, tog‘ning nisbiy va mutlaq balandliklarini aniqlang.

3. Agar yanvarning o‘rtacha harorati -4°C ga, iyulniki esa $+20^{\circ}\text{C}$ ga teng bo‘lsa, bir yillik havo haroratining amplitudasini necha gradusga teng bo‘ladi?

4. Samolyot 9 kilometr balandlikda uchmoqda. Agar xuddi shu paytda yer yuzasida havo harorati $+20^{\circ}\text{C}$ ga teng bo‘lsa, samolyot parvoz qilayotgan balandlikdagi havoning haroratini aniqlang.

5. Berilgan ma’lumotlarga ko‘ra bir sutka davomida ob-havo quyidagicha o‘zgargan bo‘lsa, sutka ichidagi o‘rtacha haroratni aniqlang:

$$-12^{\circ}\text{C}, -10^{\circ}\text{C}, -8^{\circ}\text{C}, -6^{\circ}\text{C}, +4^{\circ}\text{C}, +2^{\circ}\text{C}, -4^{\circ}\text{C}, -6^{\circ}\text{C}$$

Meteorologik kuzatish natijalaridan amaliy maqsadlar uchun foydalanish muhim ahamiyatga



ega. Oddiy usullar yordamida ertangi va yaqin kunlardagi ob - havoni qanday bo‘lishi to‘g‘risida bashorat berish o‘quvchilarni juda qiziqtiradi va kuzatish ishlarida faol qatnashadilar.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdug‘aniyev I., M.Jo‘rboev. Geografiya maydonchasi. Farg‘ona, 1987.
2. Abdug‘aniyev I., M.Jo‘rboev. Maktab geografiya maydonchasi va unda olib boriladigan amaliy ishlar. Farg‘ona, 1991.
3. Mo‘minov O. Geografiya ta’limi metodikasl. T.: 0 ’qituvchi. 1986.



GEOGRAFIYA DARSLARINING SIFAT - SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

Babayeva Malika Usmon qizi

Xorazm viloyati Urganch tumani

43 - son mактабнинг geografiya fани о'qитувчisi

Ataboyeva Nasiba Farkod qizi

Xorazm viloyati Urganch tumani

27 - son mактабнинг geografiya fани о'qитувчisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada geografiya fanidan tashkil etilgan darslar samaradorligini ta'minlovchi omillar, interfaol metodlar, axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish yo`nalishlari tahlil etilgan.

Kalit so`zlar: metod, geografiya, sifat, dars, fan, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, mакtab, ta'lim.

Ma'lumki, “Ta'lim to‘g‘risida” gi Qонун va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ni amaliyatga joriy qilishning keyingi bosqichlarida barcha o‘quv fanlari tizimida ta'lim metodlarini ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida ishlab chiqish, tabaqalashtirilgan ta'lim mazmuni va metodlarini yaratish, ularni ma'rifiy-ma'naviy tarbiyaga mos ravishda takomillashtirish ishlari davom ettirildi.

Dars - mакtab ta'liming asosiy tashkiliy shakli. Dars muayyan miqdordagi doimiy o‘quvchilar tarkibi bilan qat’iy tartibda uyushtiriladigan va aniq maqsadga yo‘naltirilgan didaktik tadbirdir. Dars-insoniyat tomonidan minglab yillar mobaynida orttirilgan hayotiy tajribalarni o‘quvchilarga juda qisqa vaqtida o‘rgatishning eng samarali usuli.

Dars ta'limganing jamoa bo‘lib amalga oshirilish tarzi sifatida ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, dars mакtab yoshidagi bolalarni yalpi o‘qitishni osonlashtiradi, ularni jamoa sifatida tarbiyalashga hissa qo‘sadi, bolalarda ijtimoiy faoliy va muomala madaniyatining shakllanishiga ko‘maklashadi. Dars da o‘quv mashg‘ulotlarining individual, guruhiy va umumsinf shakllari uyg‘unlashadi.

Har qanday jamiyatda dars jamiyat tomonidan ta'limga oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarish uchun xizmat qiladi. Darsning vazifalari ta'limgarayonining qonuniyatlarini va muayyan jamiyatning komil shaxs borasidagi tushunchalari bilan qat’iy lashadi. Quyida geografiya darslari samaradorligini oshiruvchi omillar haqida to‘xtalamiz.

Interfaol ta'limga – ta'limga mazmuni va natijalarining shaxsga yo`nalganligi ta'limga mazmuni shakli, metod va vositalarining fan texnikaning so‘nggi yutuqlari, ilg‘or tajribalar, zamonaviy metodika bilan uyg‘unlashuviga qaratilganligi bilan an‘anaviy ta'limgandan farq qiladi. Interfaol ta'limga kiritishda ilg‘or tajribalarni o‘rganish, tahlil qilish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyasining imkoniyatlaridan foydalanish bilan o‘quv jarayonining mazmun va metodlarini takomillashtirish muhim yondoshuv sanaladi. Bu o‘z navbatida o‘qituvchidan o‘z ustida muntazam ishlashni, izlanuvchanlikni, zamon bilan hamnafas bo‘lishni, eng muhim dars berish jarayonida interfaol metodlardan samarali va o‘z o‘rnida foydalanish va didaktik imkoniyatlardan foydalana bilishni talab etadi. Bular bir qatorda dars samaradorligini oshiruvchi omillardan sanalgan axborot texnologiyalari ham o‘ziga xos o‘ringa ega.

Axborot texnologiyalari hayotimizning barcha sohalari qatorida ta'limgarayoniga ham keng joriy qilindi, bu ta'limgarayonida yangi innovatsion vositalardan foydalanishga asos bo‘ldi va interfaol ta'limganing eng muhim didaktik inkoniyatiga aylandi. Ta'limga yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurati ajoyib imkoniyatlar yaratuvchi elektron darsliklar yaratilishiga sabab bo‘ldi. Elektron darsliklar o‘zida nazariy axborot va amaliy topshiriqlarni, foto va audio materiallarni jamlaydi. Axborot texnologiyalarining multimedija vositalarini o‘quv jarayonida foydalaminishi fan mavzularida animatsiya, grafika, multiplikatsiya, ovoz kabi kompyuter imkoniyatlaridan foydalanish imkonini beradi hamda o‘quvchilarda fanni o‘zlashtirish uchun muhim ko‘nikmalar hosil qiladi.

Dars samaradorligini oshiruvchi muhim omil bu zamon talabiga mos darsliklardir, chunki o‘quvchi bilim olishining eng muhim manbai darslik hisoblanadi. Darsliklar o‘z-didaktik tili bilan boshqa kitoblardan farq qiladi. Darsliklar matn barobarida unga bog‘liq diagrammalar,



metodik ishora singari didaktik modellar hamda savol va topshiriqlardan iborat unsurlarga ega bo`lgan ta’limiy majmuadir. Zamonaviy innovatsion axborot resurslarini kiritishni yo`lga qo`yish maqsadida 2019-yilda nashr etilgan 8-sinf geografiya darsligiga QR kod belgisi joylashtirildi. Buning natijasida dars jarayonida QR kod orqali internet tizimiga ularning imkoniyati yaratildi. Geografiya darsliklarining geografiya ta’limi maqsadiga hamohang illyustratsiyalari bo`lib, ularni ikki guruhga ajratish mumkin:

- a) Borliq bevosita aks etgan fotosuratlar;
- b) Voqeal, hodisa va jarayonlarning jadval, grafik, diagramma, histogramma va xarita chizmasidan iborat model hamda modullar.

Dars davomida o`qituvchi turli metodlardan va didaktik o`yinlardan foydalangan holda yuqorida darslik illyustratsiyalari bilan o`quvchilarni ishlata bilsa ularda darsga qiziqishlari oshadi va uyda ham kitob o`qishlariga zamin bo`ladi. Har qanday holatlarda illyustratsiyalar bilim manbai va bilish vositasidir. Bundan tashqari o`qituvchilar tomonidan yaratilgan slaydlar, turli ko`rgazmalar dars jarayonini o`quvchiga yetkazishning muhim didaktik vositasi hisoblanib, ular mavzu mazmuniga, o`quvchi yoshiga, qiziqishiga mos bo`lishi va sifatli tayyorlangan bo`lishi maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda interfaol metodlar va axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda o`tilgan dars o`qituvchi faoliyati va o`quvchida fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishimizga asos bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi ”Ta’lim to`g`risida”gi Qonuni Toshkent-1997 .
2. Choriev R. Yangi pedagogik texnologiyalar - ta’lim - tarbiya sifat va samaradorlik omili. Toshkent-2010y
3. ”Maktabda geografiya” jurnali 2012- yil 1-son.
4. Xalq ta’limi jurnali 2019-yil 5-son.
5. Bolabekova D. Geografiya darslari samaradorligini oshirish omillari.
6. Atayeva N., Salayeva M., Hasanov S. Umumiy pedagogika. T., 2013 y.
7. Avliyaqulov N., Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. T., 2008 y.



GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA O'QITISH VOSITALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Bozorqulova Shoxista Abduaxatovna

Bozorova Mahliyo Hayitovna

Navoiy viloyati Navoiy shahar

Alisher Navoiy nomidagi IDUM

geografiya fani o'qituvchilari

Annotatsiya: ushbu maqolada geografiya darslarida o'qitishda o'qitish vositalaridan foydalanish imkoniyatlari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: amerika munozarasi, intervyyu, guruhlarda ishslash.

An'anaviy dars o'tishda darsning asosiy maqsadi ko'proq tushuntirishga qaratilgan. O'quvchilarni o'rganilayotgan mavzuni qay darajada o'zlashtirganlarini nazorat qilish jarayonida bildirgan fikrlariga qarab amalga oshiriladi. Dars o'tishning o'quvchilar faolligini oshiruvchi interaktiv usullari ayrim adabiyotlarda noan'anaviy dars o'tish usullari deb ham ta'riflanadi. Bu usullardan avvallari ham foydalanilgan, lekin kamroq e'tibor berilgan. Hozirgi paytda butun dunyoda faol interaktiv uslublarni qo'llash dars o'tishni samarali usuli sifatida tan olinib, keng qo'llanilmoqda. Dars utish uslublari turlicha bo'lib, ulardan eng ko'p qo'llaniladigan asosiy metodlar quyidagilar: Amerika munozara (debatlar). Bunday tarzda dars o'tishda ikki o'quvchi belgilangan qat'iy tartib bo'yicha, munozaraga raislik qiluvchining rahbarligi ostida berilgan savol yoki muammo bo'yicha munozara olib boradilar. Ularning bildirgan fikrlarini arbitrlar kollegiyasi baholaydi. Arbitrlar o'quvchilardan belgilanadi. Inglizcha munozara (debatlar). Munozaraning bu shaklida muhokama qilinayotgan muammo yechimiga yetkaziladi. Ochiq munozara. Qo'yilgan muammoni belgilangan qoida bo'yicha muhokama qilib, yechimini qabul qilish yoki qilmaslikni plenumga topshirish bilan yakunlanadi. Sirtki uslub (masofadan o'qitish). O'quv materialini xatlar, topshiriqlar yoki audiovizual vositalar orqali mustaqil o'rganish. Internetni hayotga kirib kelish va borgan sari keng qo'llanilishi bilan bu uslub asosida dars berish ham rivojlanib, keng yoyilmoqda. To'g'ridan - to'g'ri bayon qilish uslubi. Bu model (uslub) yangi tushunchalar, navbatma - navbat, astalik bilan mantiqiy izchillikda berib boriladi. Bu uslub ko'proq ma'ruza o'qiganda qo'llaniladi. Guruhlarda juftlik yoki kichik guruhlarga bo'linib ishslash. Bu uslubda juftlik, yoki kichik guruh bilan birgalikda aniq qo'yilgan u yoki bu masalani, ma'lum belgilangan vaqt ichida o'zaro fikr almashish, mulqot qilish orqali yechish ko'zda tutiladi. Intervyu – bir yoki bir necha kishilardan axborot olish uchun aniq maqsadga qaratilgan so'rov (savol- javob) o'tkaziladi. Darsni aniq yo'naltirilgan (mo'ljallangan) savollar asosida olib borish. Bu uslubda mavzu bo'yicha aniq yo'naltirilgan savollar bilan mavzu muhokama qilinadi. O'qituvchi savol-javob suhbatni boshqarib turadi.

Modellashtiruvchi amaliy o'yinlar va mashqlar. Bu uslubda o'quvchilarning o'zları qatnashadi. Modellashtirishda abstrakt uslublardan foydalanib real vokelikka iloji boricha yaqinlashtiriladi. Bu uslub o'zi bajarganda oson tushunadigan o'quvchilarga qo'l keladi. Modellashtiruvchi o'yinda o'quvchilar o'zları belgilagan rollarni bajaradilar. O'z hatti harakatlari orqali zarur malaka va ko'nikmalarni egallahshadi. **Referat** – baholash nazaridan neytral pozitsiyada turgan holda mavzu bo'yicha og'zaki axborot bo'lib, u aniq obyektiv, struktura, kitob yoki risolaning mazmunini qisqacha bayon qilish yoki biron mavzu, asar bo'yicha qisqacha doklad tarzida tayyorlash mumkin. **Doklad yoki qisqacha doklad** – mavzu yoki muammoni tartibga solingan holda tanishtirish yoki baholash tarzida bayon qilinadi. **Masala yoki mashq yechish.** O'tilganlarni nazariy jihatdan yodga tushirib, berilgan topshiriqni bajarish. Nazariy bilimni mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishga qaratilgan. **Tadqiqot uslubi** bu uslub bo'yicha biron muammo yoki gipoteza qo'yilib, guruh birgalikda tadqiqot o'tkazib, mantiqiy xulosa chiqarib, uni ilgari surilgan gipoteza bilan taqqoslanadi. "**Aqliy hujum**"- uslubi, muayyan muammo qo'yilib, uni yechish uchun o'quvchilar o'rtasiga qo'yiladi. Unda har bir guruh yoki alohida o'quvchilar tomonidan fikr va mulohazalar bildiriladi. Ular solishtiriladi va xulosa chiqariladi. **Konkurs (tanlovlار)lar o'tkazish.** Ma'lum bir mavzu yoki muammo bo'yicha o'quvchilar olgan bilimlarini aniqlash va baholash uchun qo'llaniladi. Dars o'tishda boshqa qator uslublar ham mavjud bo'lib, ularni o'qituvchi mavzuning mazmuni, guruhning tayyorgarligiga qarab qo'llashi mumkin. Mustaqil ish - bu o'quvchi uchun o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni bajarish tushinilib, uning mazmunini, ijtimoiy-iqtisodiy



mohiyatini yorita bilishiga aytildi.

O'qitish vositalari va ularning turlari. O'qitish vositalari, o'qitish metodlari bilan birlikda, bilimlarni sifatli o'zlashtirishga, o'rganilayotgan material hajmini kengaytirishga va o'quvchilarining aqliy faoliyatini safarbar qilishga yordam beradi. O'qitish vositalari - bu o'qituvchiga maktab o'quvchilarining bilim va amaliy faoliyatini boshqarishda, ular oldida turgan vazifalarni hal qilishda: bilim berish, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda, bolalarga ta'sir o'tkazishda va o'quvchiga bilim berishda yordam beradigan turli xil xarakterdagi maxsus qo'llanmalar va materiallar. O'qitish vositalari bilimlarni egallah, ko'nikmalarni shakllantirish manbai hisoblanadi. O'quv qo'llanmalari eng muhim didaktik prinsiplardan biri sifatida maktab ta'limi davomida iqtisodiyotni o'qitish nazariyasi va amaliyotida ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan, ammo ular umuman dars mazmuni bilan organik ravishda bog'langan taqdirdagina foydali bo'ladi.

Foydalanimgan adabiyotlar:

1. L.P.Stoylova, A.M.Pishkalo Boshlang'ich matematika kursi asoslari. – T.: O'qituvchi 1991.
2. Tolipov O'.Q., Usmonova M., Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiyy asoslari (O'quv qo'llanma) - T.: Fan.2006



GEOGRAFIYA DARSLARIDA INTERFAOL TA'LIM VA UNING DIDAKTIK
IMKONIYATLARI

Madaminova Raxima Maksudovna

Xorazm viloyati Urganch shahri 4- son umumta'lim
maktabining geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola geografiya darslarida interfaol ta'lismi va uning didaktik imkoniyatlari haqida keng ma'lumot berilgan ushbu maqoladan umumta'lim maktabi o'qituvchilari metodik qo'llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

Kalit so'zlar: Ta'lismi-tarbiya, interfaol metodlar, o'quvchilar va o'qituvchilar, samaradorlik,, savol javoblar, ishtirokchilar, malaka, ko'nikma, interaktiv.

Zamonaviy sharoitda ta'lismi samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'l — bu geografiya darslarida mashg'ulotlaming interfaol metodlar yordamida tashkii etish bugungi kun va zamon talabiga aylanmoqda. Xo'sh, interfaol metodlaming o'zi nima? Ular qanday didaktik imkoniyatlarga ega? Ta'lismi jarayonida interfaol metodlaming o'rinni, maqsadga muvofiq qoilanilishi qanday samaralami kafolatlaydi? Quyidagi ana shu kabi savollarga qisqacha javob topiladi. Yuqoridagi savollarga javob topishda eng to'g'ri qadam tayanch tushuncha - “interfaol” atamasining lug'aviy ma'nosi bilan tanishishdir. **“Interfaol”** tushunchasi ingliz tilid a “interact” (rus tilida “interaktiv”) ifodalanib, - lug'aviy nuqtai nazardan “inter” - o'zaro, ikki taraflama, “act” - harakat qilmoq, ish ko'rm oq kabi m a'nolam i anglatadi. Interfaol ta'lismi - ta iim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlari o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro ham korlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lismi Interfaollik ta'lismi jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka ham da muayyan iixloqiy sifatlari o'zlashtirish y o'lida birgalikda, ozaro ham korlikka asoslangan harakatni tashkil etish Iayoqatiga egaliklaridir. Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng awalo, ijtimoiy sub'ektlaming suhbat (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatining olib borishlarini ifodalaydi. Ta'lismi sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxiisis yaxshi biladiki, an'anaviy ta'lismi ham suhbat (dialog) ga asoslangan va bu suhbat quyidagi o'zaro munosabat shakllarida tashkil etiladi: ' O'qituvchi - o'quvchi A An'anaviy ta'limgagini suhbat Ц 0 'qituvchi - o'quvchilar ishtirokchilarini guruhi (jamoasi) An'anaviy ta'limga ham tabiiy ravishda suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot tuiatishning asosiy manbai o'qituvchining tajribasi bo'lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya'ni u darsning asosiy vaqtida bilimlami og'zaki tarzida o'quvchi (talaba) larga yetkazib berishga intiliidi. Faollik ko'rsatish o'qituvchigagina xos bo'lib, o'quvchi (talaba) lar bu vaziyatda sust tinglovchi bo'lib qoladi. Ulaming asosiy vazifasi o'qituvchini tinglash, zarur o'rinnarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, kam holatlarda ruxsat etilganidagina so'zl:ishdan iboratdir. An'anaviy ta'limgagini bir tomonlamalik oliy ta'lismi tizimidagi faqat ma'ruza mashg'ulotlarida einas, seminar darslarida ham ustuvorlik qiladi. Unga ko'ra, “yetkazib beruvchi” rolida endi o'qituvchi emas, balki o'quvchi (talaba) namoyon boradi. O'quvchi (talaba), asosan, o'zi o'zlashtirgan bilimlami namoyish etadi, o'qituvchi esa uning fikrlarini tinglaydi, zarur o'rinnarda savollar bilan murojaat qiladi. o 'quvchi (talaba)lar guruhi (jamoasi) bu vaziyatda butunlay sust ishtirokchi tinglovchi bo'lib qoladi. Bir qarashda o'quvchi (talaba) yoki o'qituvchi tomonidan uzatilayotgan axborotlaming qabul qilinishi talabalar guruhi (jamoasi) uchun bilimlami o'zlashtirish imkoniyatini yaratayotgandek taassurot uyg'otadi. Biroq, psixologik tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, shu tarzda qabul qilingan bilim (ma'lumot)lar juda tez unutiladi. Xususan, amerikalik psixolog olimlar R.Kamikau va F.Makelrouning o'rganishlariga ko'ra shaxsning tabiiy fiziologik-psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o'zlashtirilgan bilimlami turli darajada saqlab qolish imkonini beradi. Ya'ni shaxs: manbani o'zi o'qiganida 10 %; ma'lumotni eshitganida 20 %; sodir bo'lgan voqe, hodisa yoki jarayonni ko'rganida 30 %; sodir bo'lgan voqe, hodisa yoki jarayonni ko'rib, ular to'g'risidagi ma'lumotlami eshitganida 50 %; ma'lumot (axborot)lami o'zi uzatganida (so'zlaganida, bilimlarini namoyish etganida) 80 %.



%; o'zlashtirilgan bilim (ma'lumot, axborot)lami o'z faoliyatiga tatbiq etganida 90 % hajmdagi ma'lumotlami yodda saqlash imkoniyatiga ega. Shunga ko'ra interfaol o'qitish “ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilar

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Geografiya o'qitish metodikasi H.Vaxobov, N.R Alimqulov, N.B. Sultanov Toshkent 2020
2. Interfaol metodlar qo'llanma Toshkent 2017
3. www.ziyoz.com kutubxonasi



ГЕОГРАФИЯ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА
ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА ИННОВАЦИЯЛАР

Пармонова Сайяра Абдусидиковна
Исматова Йорда Уммат қизи
Сирдарё вилояти Гулистан шаҳар 11-умумтаълим
мактабининг кимё фани ўқитувчилари
Телефон раками: 99-854-37-39

Аннотация: Ушбу мақолада география фанини ўқитишида умумтаълим мактабларида замонавий ёндашувлар ва инновациялар ва география фани ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, ундаги қўлланиладиган педагогик технологиялар хусусида мулоҳазалар юритилган.

Калит сўзлар: География, Педагогик технология, сифат-самарадорлик, инновацион технология.

География фанини ўқитишида замонавий ёндашувлар ва инновациялар модули назарий ва амалий машғулотлар шаклида олиб борилади. Назарий машғулотларда география фанини ўқитишида илғор хорижий тажрибалар, замонавий ёндашувлар ва инновациялар хақида маълумотлар берилади. Амалий машғулотларда географияни ўқитишида замонавий ёндашувлар ва инновацияларнинг қўлланилиши, замонавий таълим воситаларидан фойдаланиш усуллари, география дарсига қўйилган замонавий талаблар ўргатилади.

География фани ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, ундаги қўлланиладиган педагогик технологиялар билан бир каторда доимий равишда картографик усулни ўрни қўрсатилиб борди. Педагогик технологиялардабугунги кунда кенг қўлланилаётган Кейс-стади, Муаммоли Кластер, БББ, Инсерт, Камалак кабилари ишланмаларда қўлланилиши қўрсатилиб берилди. Деярли барча мавзуларга блиц-сурор, кейс-стади, кластер технологиялари қўлланилди ва уларнинг самарадорлиги юқори эканлиги белгиланди. Бугунги кунда таълим мазмунини модернизациялаш, таълим сифатини ошириш, таълимда инновацион технологияларни кенг жорий этишга йўналтирилган кўплаб инновациялар яратилмоқда ва амалиётга жорий этилмоқда. Мазкур инновацияларнинг самарадорлиги кўп жиҳатдан таълим муассасасида амалга оширилаётган инновацион фаолиятнинг тўғри ташкил этилганлигига боғлиқдир. Ҳозирги кунга келиб Ўзбекистонда география дарсларида ўкув ва ижодий фаолликни оширувчи ҳамда таълим жараёнининг самарадоригини оширувчи таълим технологиялар интерфаол методлар номи билан юритилмоқда. Интерфаол методлар асосида тузилган дарс тизимларида турли стратегиялардан фойдаланилади. Бунда ўкувчиларга китоблар, дафтар, бошқа усуллардан фойдаланиш тақиқланмайди, аксинча бундай усулларни қўллаш рафбатлантирилади. Ҳозирги кунда таълим жараённида интерактив методлар, 82 инновацион технологиялар, педагогик ва ахборот технологияларини ўкув жараённида қўллашга бўлган қизиқиш кучайиб бормоқда, бундай бўлишининг сабабларидан бири, шу вақтгача анъанавий таълимда ўкувчиларни факат тайёр билимларни эгаллашга ўргатилган бўлса, замонавий технологияларда эса, уларни эгаллаётган билимларни ўзлари қидириб топишларига, мустақил ўрганиб таҳлил қилишларига, ҳатто хуросаларни ўзлари келтириб чиқаришларига ўргатади. Педагог бу жараёнга шахснинг ривожланиши, шаклланиши, билим олиш ва тарбияланишига шароит яратади ва шу билан бир каторда бошқарувчилик, йўналтирувчилик функциясини бажаради. Таълим жараённида ўкувчи асосий шахсга айланади. Педагогик технологиянинг сўзлаш жараённида ўқитувчи фаолияти сўзлаш, савол-жавоб, баҳс, мунозара, музокара; кўргазмали ўкув жараённида қўрсатиш, тушунтириш, савол-жавоб, машқ бажариш жараённида эса машқ бажариш тартибини қўрсатиб бериш, тушунтириш, савол-жавоб, раҳбарлик назоратдан ташкил топади. Самарали бошқариш учун ўкувчи фаолиятини ташкил этиш шаклларига эътибор қаратмоғи лозим. Бунинг учун -амалиётда юқори қўрсаткичларга эришиш натижасида тасдиқланган янгиликларни тезкор татбиқ этиш; -кутилаётган натижаларга мос бўлган педагогик технологияни танлаш, таълим-тарбия жараёнини амалга ошириш ва мунтазам такомиллаштириб бориш керак. Ўкувчилар ва ўқитувчилар муносабатининг ўзига хос жиҳати ўкувчилар мустақиллиги ва ўкув фаолиятини тақиқлаш эмас, балки йўналтириш, ўкув фаолиятини ҳамкорликда ташкил этиш-бошқариш, таълим олишда мажбурлаш эмас, балки ўкувчиларни ишонтириш, бирон



бир фаолиятни амалга ошириш буйруқ орқали эмас, балки шу фаолиятни самарали ташкил этиш, шахснинг эҳтиёжи, қизиқиши, имкониятларини чегаралаш эмас, балки эркин танлаш хуқуқини бериш саналади. Янги муносабатларнинг асосий моҳияти, анъанавий таълимда кўзда тутилган натижаларни бермаётган мажбуран үқитишдан воз кечиш ва унинг ўрнига -ўзаро ишончга асосланган талабчанлик; -таълим жараёнини самарали ташкил этиш орқали ўқувчилар ўртасида қизиқиш уйғотиш ва онгли интизомни вужудга келтириш; -мустақил фаолиятни ташкил этилиши; -тегишли талабларни жамоа орқали қўллашни амалга ошириш муҳим саналади. Таълим тизимида янги муносабатларнинг вужудга келиши шахсга тафовутлаб ёндошишни талаб этади. Таълим жараёнини ташкил этишда ўрта савияли ўқувчига нисбатан мўлжал олишдан воз кечиш; -ўқувчиларнинг энг яхши сифатларини аниқлаш ва ривожлантириш; -таълимда психологик-педагогик диагностикани қўллаш орқали ўқувчиларнинг қизиқиш, эҳтиёжини, қобилияти, шахсий сифатлари, ақлий фаолиятининг хусусиятларини аниқлаш -ўқувчилар ўзлаштирадиган билим, қўнікма ва малакалар динамикасини тасаввур қилиш талаб этилади. Қатор педагогик технологиялар ўқитувчи ва ўқувчилар муносабатини ташкил этишнинг асоси саналса, ўқувчиларнинг билиш фаолиятини ташкил этиш бошқа технологияни қўллашни талаб этади. Шу сабабли ҳар бир машғулотда битта технологиядан эмас. Шундай қилиб, битта машғулотда бир нечта педагогик технология уйғунлаштиради. Ўқувчиларнинг билиш фаолиятини фаоллаштириш ва самарадорлигини оширишга қаратилган педагогик технологиялар ўқувчиларда ижтимоий нормаларга мос онгли интизомнинг вужудга келиши, мотивациянинг юқори даражада бўлиши, билим, қўнікма ва малакаларни онгли ўзлаштиришга бўлган эҳтиёжининг ортиб бориши қўзланган натижанинг кафолатланганлиги ва самарадорликнинг юқори бўлиши билан қимматлидир.

География фанини ўқитишда компетенциявий ёндашув. География фанини ўқитишда замонавий ёндашув. Фанни ўқитишда қўлланиладиган инновациялар. Педагогик технологиялар тушунчаси. Педагогик инновациялар ва педагогик технологияларни география дарсларда қўллаш. Ўқитувчини педагогик маҳоратитушунчаси. Илғор педагогик тажриба ва улардан фойдаланиш масалалари.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Атамирзаев О.Б. О современной системе географических наук. « география фанининг долзарб назарий ва амалий масалалари » – Тошкент: 2016..
2. Алимқулов Н.Р., Абдуллаев И.Х. «Амалий география» фанини соҳаларга йўналтириб ўқитиши методикаси (ЎМКХТМ ўқитувчилари учун методик қўлланма) – Тошкент: 2012

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 25-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000